

## O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARINING TASNIFIGA DOIR

**Tursunova Navro‘za**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada turk xalq maqollari va o‘zbek xalq maqollari o‘rtasidagi faqrli jihatlar yoritilgan. Umumiy xususiyatlari aytib o‘tilgan. Lingvokulturologik birliklardan biri bo‘lgan tilning paremiologik fondiga doir fikr-mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** leksema, paremiologik fond, lug‘at, maqol, leksik birlik, fonomen.*

## К КЛАССИФИКАЦИИ УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПОСЛОВИЦ

***Аннотация:** в этой статье освещаются различия между турецкими народными пословицами и узбекскими народными пословицами. Упоминаются общие черты. Представлены мнения о паремиологическом фонде языка, являющегося одной из лингвокультурных единиц.*

***Ключевые слова:** лексема, паремиологический фонд, словарь, пословица, лексическая единица, фономены.*

## ON THE CLASSIFICATION OF UZBEK AND TURKISH PROVERBS

***Abstract:** this article highlights the differences between Turkish folk proverbs and Uzbek folk proverbs. General features are mentioned. Opinions on the paremiological fund of the language, which is one of the linguistic and cultural units, are presented.*

***Key words:** lexeme, paremiological fund, dictionary, proverb, lexical unit, phonomen.*

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho ma'naviy meros hisoblanadi. Xalqlarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib maqollar turlicha bo'ladi.

Turli xalqlarning maqollaridagi tafovutlarni lingvokulturologiyada o'rganib chiqish mumkin. V. N. Teliya aytganidek, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.[2;22] Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir". [ 2;21] Ma'lumki, lingvokulturologik birliklardan biri tilning paremiologik (maqol va matallar ) fondi. Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan. [2; 29] Mana shunday xususiyatlarga ko'ra o'zbek va turk maqollaridagi o'xshash va farqli tomonlarni ham tasnif qilish mumkin. Misol uchun:

*Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas [4;96].*

Aynan ushbu maqolga mazmun jihatdan to‘g‘ri keladigan turk maqoli:

*Yalnız taş duvar olmaz. (ya’ni yolg‘iz tosh devor bo‘lmaydi.)* [4 ;96]

Aytib o‘tilganidek, maqollar o‘z ichiga bir olam ma’nolarni singdirgan. Berilgan o‘zbek xalq maqoli qadimdan qo‘llanib kelinmoqda. Ma’lumki, o‘zbek xalqi jonkuyar va odamoxun buning isbotini misol sifatida keltirilgan maqol orqali ham bilishimiz mumkin. Maqolning asosiy hamda tag ma’nosi birlik, ahillik masalalariga doir. Ma’nodoshi “*Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas*”. Maqolning kelib chiqish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda ishtirok etgan tariq leksemasi boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik g‘alla o‘simligi va uning oqlab so‘k qilinadigan mayda doni. [3;735] Bo‘tqa leksemasi bo‘lsa guruch, bug‘doy kabi donlardan qaynatib pishirilgan quyuc ovqat (halim, shavla, shirguruch kabilar) [3;500] Aynan tariq va bo‘tqa leksemalari qo‘llanishining ham bir qancha sabablari bor. Tariq asosiy dehqonchilik mahsulotimiz bo‘lsa, bo‘tqa o‘zbek xonadonlarida sevib iste’mol qilinadigan taomlar sirasiga kiradi. Shu sababli ham aynan ushbu leksemalardan foydalanilgan. Turk xalq maqoliga to‘xtaladigan bo‘lsak, “*Yalnız taş duvar olmaz*”( *ya’ni yolg‘iz tosh devor bo‘lmaydi*). [4 ;96] Bu maqol “*Bir tariqdan bo‘tqa bo‘lmas*”. [4;96] maqoli bilan bir xil mazmunga ega bo‘lganligi uchun ham maqol mazmuni birdamlik va hamjihatlik haqida deb ayta olamiz. O‘zbek xalq maqoli bilan turk xalq maqolidagi umumiylik maqol mazmun planiga singdirilgan ma’nolarda bo‘lib, biri ikkinchisining o‘rnida erkin qo‘llana oladi. Farqli jihati esa uning tarkibida kelgan leksemalar turlicha ekanligidadir. O‘zbek xalq maqolida tariq va bo‘tqa leksemalari orqali mazmun anglashilgan bo‘lsa, turk xalq maqolida xuddi shu vazifani tosh hamda devor leksemalari bajargan. Aynan ushbu leksemalar qo‘llanishining o‘ziga xos sababi bor. Ma’lumki, turklar o‘zbeklar bilan qardosh xalq hisoblanib, ularning milliy mafkurasiga ham birdamlik tamoyillari singib ketgan. Shuningdek, Turkiyani shimoldan Qora dengiz, g‘arbdan Egey dengizi, janubdan O‘rta yer dengiz yuvib turadi. Qadimda dengiz sohillaridagi uy va devorlar turli suv toshqinlariga chidamli bo‘lishi uchun qurilish xomashyosi sifatida, asosan, toshdan

foydalanilgan. Shuning uchun ham tosh va devor leksemalari maqol mazmun planini akslantirib turuvchi vosita sifatida olingan.

*Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.*

*Ateş olmayan yerden duman çıqmaz (ya'ni olov bo'lmasa, tutun chiqmaydi).*

Ushbu maqollar xalqning falsafiy qarashlari mahsuli bo'lib, "Tabiatda ham, jamiyatda ham ro'y beradigan har bir voqea-hodisaning muayyan sababi bor. Sababsiz hech qanday oqibat bo'lmaydi. Masalan, xalq orasida bir gap tarqalibdimi – demak, bir ish bor", degan ma'noda qo'llaniladi. "Yelsiz terak tebranmas"; "It qora ko'rmasa, hurimas"; "Bulut bo'lmasa, chaqmoq chaqmas"; "Besabab oyoqqa tikan kirmas"; "Chopgan yerdan chang chiqar"; "Tagsiz xabar tarqamas" maqollari maznun jihatdan teng keladi. [5;433] O'zbek xalq maqolida ma'lum sabab bo'lmay turib, biror xabar tarqamasligini anglatish maqsadida daraxt va shamol leksemalari qo'llanilgan. Turk xalq maqolida esa xuddi shu mazmunini ifodalash uchun olov va tutun leksemalaridan foydalanilgan. Misol sifatida olingan maqollarning mazmun plani umumiy bo'lib, faqatgina tarkibida kelgan ma'lum leksemalari bilan farqlanadi.

*Usta pichoqqa yolchimas, Etikdo'z – bigizga [4;94].*

*Kürkçünun kürkü olmaz, börkçünün börkü. (ya'ni mo'ynachilar mo'ynaga yalchimas)*  
[4;94]

Berilgan ikki xalq maqolida bir umumiy mazmun ya'ni ma'lum hunar egasi bo'la turib ushbu hunar orqali hosil qilinadigan mahsulotlar hunar egalarining o'zida bo'lmasligi aks ettirilgan. Ma'nodoshlari: "Temirchi taqaga yolchimas, Bo'zchi — belboqqa". [5;100] "Bo'zchi belboqqa yolchimas, Kulol — mo'ndiga". [5;182] O'zbek xalq maqolida usta hamda etikdo'z leksemalaridan foydalanib, mazmun izohlangan bo'lsa turk xalq maqolida mo'ynachilar leksemasi qo'llangan. Har ikki xalq maqolining ham ta'sir ahamiyatini oshirish uchun aynan ushbu leksemalar tanlab olingan. Bularning barchasi dono xalq vakillarining so'z boyligi mahoratini ham ko'rsatib bergan.

*To'rga tushgan baliq qarmoqdan qo'rqmas. [4;95]*

*Olmüş eşek kurttan korkmaz. (ya'ni o'lik eshak bo'ridan qo'rqmaydi) [4;95]*

Yuqoridagi o‘zbek va turk xalq maqoli ham aynan bir mazmuni ifodalashga xizmat qiladi. Maqol orqali “ Biror ayb bilan qo‘lga tushib, qamalib chiqqan odam qattiq jazodan qo‘rqmaydi, ayb-gunohning batarrog‘ini qilaveradi”, deyilmoqchi, jamiyatda buni tasdiqlovchi voqea-hodisalar tez-tez uchrab turadi. [ 5;406] Shu boisdan bu maqol namunalari qadimdan xalq og‘zaki ijodida qo‘llanib, sayqallanib kelmoqda. Mazmun plani umimiy bo‘lgan holda, uni aks ettirib turuvchi leksemalar har ikki tilda turlicha holatda qo‘llangan. O‘zbek xalq maqolida *to‘r, baliq, qarmoq* leksemalari yordamida mazmun anglashilgan bo‘lsa, turk xalq maqolida xuddi shu vazifani *o‘lik eshak hamda bo‘ri* leksemalari bajargan.

Xulosa qilib aytganda, tilning paremiologik fondi hisoblanmish maqollar asrlar davomida xalqlar hayotiga singib ketgan an‘ana va voqeliklarni o‘zida mujassamlashtiradi. Turk va o‘zbek maqollaridagi mazmuniy bog‘liqlik ularning qardosh xalq vakillari ekanligi bilan izohlansa, maqollar tarkibidagi leksemalarning o‘zaro farqlanishi ikki xalq til xususiyatlari hamda so‘z qo‘llash texnikasi masalalari bilan uzviy bog‘liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq maqollari T.: “Sharq” 2005
2. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati T.: “O‘zbek milliy entiklopediyasi” 2006
4. I. Yo‘ldoshev O‘zbek va turk maqollari iboralari T.: 1998
5. Sh.Shomaqsudov Sh.Shorahmedov Hikmatnoma T.: 1990
6. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati T.: “O‘qituvchi” 1978
7. D. Xudoyberganova Matnning antroposentrik tadqiqi T.: “Fan” 2013